

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

**MASHINASOZLIK  
ILMIY-TEXNIKA JURNALI**

\*\*\*

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН  
АНДИЖАНСКИЙ МАШИНОСТРОИТЕЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ**

**НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
МАШИНОСТРОЕНИЕ**

\*\*\*

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS REPUBLIC  
OF UZBEKISTAN  
ANDIJAN MACHINE-BUILDING INSTITUTE  
SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL  
MACHINE BUILDING**

*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-dekabrda 310/10-son qarori bilan Andijon mashinasozlik institutining “Mashinasozlik” ilmiy-texnika jurnali “TEXNIKA” va “IQTISODIYOT” fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.*

Ushbu jurnalda chop etilgan materiallar tahririyatning yozma ruxsatisiz to‘liq yoki qisman chop etilishi mumkin emas. Tahririyatning fikri mualliflar fikri bilan har doim mos tushmasligi mumkin. Ilmiy-texnika jurnalida yozilgan materiallarning haqqoniyligi uchun maqolaning mualliflari mas’uldirlar.

MASHINASOZLIK  
ILMIY-TEXNIKA JURNALI

**Bosh muharrir:**

U.M.Turdialiyev – texnika fanlari doktori, k.i.x.

**Mas’ul muharrir:**

U.A.Madrahimov – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**T A H R I R H A Y ’ A T I**

Turdialiyev Umid Muxtaraliyevich – texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim (AndMI);  
Madrahimov Ulug‘bek Abdixalilovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (AndMI);  
Negmatov Soyibjon Sodiqovich – texnika fanlari doktori, professor O‘ZRFA akademigi (TDTU);  
Abralov Maxmud Abralovich – texnika fanlari doktori, professor (TDTU);  
Dunyashin Nikolay Sergeevich – texnika fanlari doktori, professor (TDTU);  
Norxudjayev Fayzulla Ramazanovich – texnika fanlari doktori, professor (TDTU);  
Pirmatov Nurali Berdiyrovich – texnika fanlari doktori, professor (TDTU);  
Salixanova Dilnoza Saidakbarovna – texnika fanlari doktori, professor (O‘ZRFA UNKI);  
Siddikov Ilxomjon Xakimovich – texnika fanlari doktori, professor (TIQXMMI);  
Fayzimatov Shuhrat Numanovich – texnika fanlari doktori, professor (FarPI);  
Xakimov Ortiqali Sharipovich – texnika fanlari doktori, professor (Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot instituti);  
Xo‘jayev Ismatillo Qo‘shiyevich – texnika fanlari doktori, professor (Mexanika instituti);  
Ipatov Oleg Sergeevich – professor (Sankt-Peterburg politexnika universiteti, Rossiya);  
Naumkin Nikolay Ivanovich - p.f.d., t.f.n., professor. (Mordov milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya);  
Aliyev Suxrob Rayimjonovich – fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (AndMI);  
Shen Zhili – professor (Shimoliy Xitoy texnologiyalar universiteti, Xitoy);  
Hu Fuwen – professor (Shimoliy Xitoy texnologiyalar universiteti, Xitoy);  
Won Cholyeon – professor (Janubiy Koreya Milliy tadqiqotlar fondi, Janubiy Koreya);  
Celio Pina – professor (Setubal politexnika universiteti, Portugaliya);  
Ricardo Baptista – professor (Setubal politexnika universiteti, Portugaliya);  
Rui Vilela – professor (Setubal politexnika universiteti, Portugaliya);  
Dmitriy Albertovich Konovalov - t.f.n., professor (Voronej davlat texnika universiteti);  
Мухаметшин Вячеслав Шарифуллович – директор Института нефти и газа федерального государственного бюджетного образовательного учреждения высшего образования «Уфимский государственный нефтяной технический университет» (филиал в г.Октябрьском), доктор геологоминералогических наук, профессор.  
Nimchik Aleksey Grigorevich – kimyo fanlari doktori, professor (TDTU Olmaliq filiali)  
Muftaydinov Qiyomiddin – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (AndMI);  
Zokirov Saidfozil – i.f.d., (Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti);  
Orazimbetova Gulistan Jaksilikovna - t.f.d., dotsent (AndMI)  
Jo‘raxonov Muzaffar Eskanderovich – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (AndMI);  
Ermatov Akmaljon – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (AndMI);  
Qosimov Karimjon – texnika fanlari doktori, professor (AndMI);  
Yusupova Malikaxon – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (AndMI);  
Akbarov Xatamjon Ulmasaliyevich – texnika fanlari nomzodi, dotsent (AndMI);  
Mirzayev Otabek Abdiraximovich – texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (AndMI);  
Soxibova Zarnigor Mutalibjon qizi – fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), (AndMI);  
Raxmonov O‘ktam Kamolovich – texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), (TDTU, Olmaliq filiali);  
Xoshimov Xalimjon Xamidjanovich – texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), (AndMI).  
Kuluyev Ruslan Raisovich - texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), (TDTU).

**Texnik muharrir:**

B.Iminov, M.Kenjayeveva – Andijon mashinasozlik instituti nashriyoti.

**Tahririyat manzili:** Andijon shahar, Bobur shox ko‘cha, 56-uy. **Tel:** +998 74-224-70-88 (1016)

**Veb sayt:** [www.andmiedu.uz](http://www.andmiedu.uz)

**e-mail:** [andmi.jurnal@mail.ru](mailto:andmi.jurnal@mail.ru)

*“Mashinasozlik” ilmiy-texnika jurnali O‘zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2020 yil 28- fevraldagi 04-53-raqamli guvohnomasiga binoan chop etiladi.*

Sanoat tarmog'ini rivojlanishiga raqamli texnologiyalarning ta'siri <i>Muxtarov M.M., Hakimov A.F.</i>	207
O'zbekiston mintaqalarida sog'liqni saqlash sohasining rivojlanishi <i>Zokirov S.S., Xusanova S.Sh.</i>	212
Анализ деятельности субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства Республики Узбекистан и пути развития <i>Жураханов М.Э.</i>	219
Zamonaviy tashkilotlarda rahbarlik faoliyatini takomillashtirish masalalari <i>To'xtabaev A.T.</i>	227
The management of the company in the context of sustainable development: new challenges and opportunities in Central Asian countries example CJSC Kumtor Gold Company (KGC), Kyrgyzstan <i>Samieva K.T., Amanov B.A., Nurilaev B.Y.</i>	234
Современные методы стимулирования и проблемы сбыта в туристском бизнесе <i>Орозалиева А.А., Маатова З.М.</i>	243
Управленческий учет в сельскохозяйственных предприятиях <i>Абдуллаев А.</i>	249
Iqtisodiy o'sish va uning samaradorlik omillari tahlili <i>Madrahimov U.A.</i>	256

**Muxtarov Maxmudjon Marifovich**  
**Andijon mashinasozlik instituti**  
**“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti (PhD)**  
**m.m.muxtorov@mail.ru +99893 699-77-47**  
**Xakimov Akbar Faxraddin o’g’li**  
**“Intellectual boshqaruv va kompyuter tizimlari” fakulteti**  
**“Mexotronika va Robototexnika” yo’nalishi**  
**2-bosqich talabasi**

## **SANOAT TARMOG‘INI RIVOJLANISHIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TA’SIRI**

## **ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА РАЗВИТИЕ ПРОМЫШЛЕННОГО СЕКТОРА**

## **THE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE DEVELOPMENT OF THE INDUSTRIAL SECTOR**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada sanoat tarmog‘ini rivojlanish xususiyatlari, bugungi kundagi mavjud holati, shuningdek tarmoqni rivojlanish darajasiga raqamli texnologiyalar ta’siri o‘rganilgan. Mualliflar sanoat tarmog‘ini rivojlantirish, sanoatning iqtisodiy natijalarini yaxshilash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha mulohazalar yuritgan.

### **Аннотация**

В данной статье рассматриваются особенности развития промышленной сети, ее современное состояние, а также влияние цифровых технологий на уровень развития сети. Авторы обсудили применение цифровых технологий в развитии производственной сети, улучшении экономических результатов отрасли и повышении экономической эффективности.

### **Abstract**

This article examines the characteristics of the development of the industrial network, its current state, as well as the impact of digital technologies on the level of development of the network. The authors discussed the application of digital technologies in the development of the industrial network, improvement of the economic results of the industry and increase of economic efficiency.

**Kalit so‘zlar:** sanoat, tarmoq, raqamlashtirish, avtomatlashtirish, sun’iy intellekt, samara, samaradorlik, rentabellik, innovatsiya, investitsiya, texnologik rivojlanish, ish o‘rinlari.

**Ключевые слова:** промышленность, сеть, цифровизация, автоматизация, искусственный интеллект, эффективность, результативность, рентабельность, инновации, инвестиции, технологическое развитие, рабочие места.

**Keywords:** industry, network, digitization, automation, artificial intelligence, efficiency, effectiveness, profitability, innovation, investment, technological development, jobs.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishini ta'minlashda tarmoq va sohalarning ahamiyati yuqori hisoblanadi. O'zbekiston iqtisodiyotida sanoat yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanib, mavjud ishlab chiqarish omillari va mehnat salohiyati sohani rivojlanish imkoniyati yuqoriligini ta'minlaydi. Sanoat tarmog'ini rivojlantirishda mavjud ishlab chiqarish salohiyatida foydalanishni yaxshilash, investitsion va innovatsion rivojlanishini ta'minlash bugungi kundagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Amaliyotda ham ishlab chiqarish sohasi tez sur'atlarda rivojlanib bormoqda va bu ishlab chiqarishni raqamlashtirish asosida jihozlarni modernizatsiya qilish zarurligini ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda dunyodagi rivojlangan mamlakatlar amaliyotida ham raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, turli soha va tarmoqlarda iqtisodiy rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Birlashgan millatlar tashkilotining savdo va taraqqiyot bo'yicha anjumani ma'lumotlariga ko'ra, ishlab chiqarishning raqamlashtirish darajasi yildan yilga ortib bormoqda, ya'ni raqamli iqtisodiyotning dunyo YIMdagi ulushi 2000-yili 4,5 foizni, 2018-yili 15,5 foizni va 2023-yili 24,2 foizni tashkil etgan [3]. Amerika Qo'shma Shtatlari tahlil byurosi hisob-kitoblariga asosan 2010-2020-yillarda raqamli iqtisodiyotning real qo'shimcha qiymatining o'sish sur'ati o'rtacha 5,6 foizni tashkil etgan bo'lib, oxirgi yillarda yillik iqtisodiy o'sish sur'atidan 1,5 foizga ortib ketgan [4]. Demak rivojlangan mamlakatlar amaliyotida ham sanoat tarmog'ini rivojlanishini ta'minlashda bevosita ishlab chiqarishni raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda ham sanoat ishlab chiqarishni raqamlashtirish asosida samaradorligini ta'minlash uchun alohida e'tibor qaratilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-maydagi «Raqamli O'zbekiston-2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» [PF-6079](#)-sonli qarori asosida bir qator amaliy ishlar qilinmoqda. Yuqorida keltirilgan qarorda mamlakatda yaratilayotgan YIMni kamida 30,0 foizni raqamli mahsulotlar hisobiga erishi asosiy vazifa qilib qo'yilgan. Belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda mamlakatda iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda sanoat tarmog'i alohida ahamiyat kasb etib, bunda mavjud ishlab chiqarish kuchlarini raqamlashtirish asosiy omillardan birii hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot va ishlab chiqarishni raqamlashtirish bo'yicha bugungi kunga qadar bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. V.G.Kim o'z tadqiqotlarida sanoat korxonalarini faoliyatida ishlab chiqarishni raqamlashtirishga innovatsiya omilini baholagan bo'lsa [5], A.G. Allaeva raqamli infrastrukturani rivojlantirish asosida sanoatni rivojlantirish asoslarini baholagan [6]. L.Blyaxman [8], I.A.Gunina, Yu.P.Lyutova [9] va R.J.Kurbanovalar [10] sanoat korxonalarini iqtisodiy natjalariga raqamlashtirish ta'sirini raqamli infratuzilmani rivojlantirish (blok-chain), innovatsion texnologiyalar bilan ishlash va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan inson resurslari (doing-business), ta'lim va malaka, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish darajasi ta'siri va kapital mablag'lardan foydalanish holati asosida tadqiq etganlar. Jahon iqtisodiy forumi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra ham yaqin o'n yillikda mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarish jarayoni va past malaka talab qiluvchi mehnat jarayonlari to'laligicha avtomatlashtirilgan va raqamlashtirilgan tizimga o'tishi rejalashtirilgan [11]. Bugungi kunda ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilib, moddiy resurslar ta'minoti, birlamchi ishlov berish jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanilmoqda.


Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ishlab chiqarishni raqamlashtirishni ikki asosiy tushuncha asosida tadqiq qilish mumkin. Birinchisi, raqamlashtirishni rivojlanishning muhim bosqichi sifatida mehnat va axborot texnologiyalarining ustuvor ahamiyat qaratish, Ya'ni

ishlab chiqarish samaradorligi va innovatsiyalar joriy etishda axborot texnologiyalaridan keng foydalanish. Ikkinchisi, raqamlashtirish ob'ektlari axborotlashgan jamiyat sifatida baholanib, barcha soha va tarmoqlarda axborot va raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida rivojlanishini ta'minlash. Demak raqamlashtirish nafaqat ishlab chiqarishni, balki butun jamiyat infratuzilmasini axborotga asoslanishini anglatadi. Sanoat tarmog'ida ishlab chiqarishni raqamlashtirishning asosiy nuqtasi bo'lib korxonalar hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini faoliyatida ham ishlab chiqarishni raqamlashtirishni ta'minlashda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish zarur:

- **ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, ya'ni yangi texnologiya uskunalar va dasturiy ta'minotlarni joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini to'liq avtomatlashtirish;**
- **mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish, bunda raqamli texnologiyalar orqali mahsulot sifatini nazorat qilish;**
- **raqamli infratuzilmani rivojlantirish, sanoat korxonalarida ma'lumotlarni real vaqtda to'plash, tahlil qilish va uzatish imkoniyatini beruvchi raqamli infratuzilmani tashkil etish;**
- **kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash raqamli texnologiyalar bilan ishlay oladigan mutaxassislariga bo'lgan talab ortishi natijasida malakali kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratish.**

Sanoat korxonalarini faoliyatida ishlab chiqarishni raqamlashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga qaror qabul qilishni tezlashtiradi. Natijada iqtisodiy jarayonlarni o'zgarishiga olib keladi, hamda moslashuvchanlik darajasi ta'minlanadi. Sanoati korxonalarida bu jarayonlarni rivojlantirish buyumlar interneti (IT) asosida amalga oshiriladi (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Ishlab chiqarishni raqamlashtirish asoslari**

1-rasmdan ko'rinib turibdiki ishlab chiqarishni raqamlashtirishning asosiy elementlari juda muhim texnologiyalar va jarayonlardan iborat. Sun'iy intellekt, 3D printerlar, mobil


texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish bo'g'inlari va uskunalarni raqamlashtirish, ma'lumotlarni yig'ish va uzatish jarayonlarini raqamlashtirish, ishlab chiqarish bo'g'inlarini yagona axborot tarmog'iga birlashtirish kabi yo'nalishlar raqamli transformatsiyaning asosiy omillari sifatida keltirilgan.

Bu elementlar nafaqat ishlab chiqarish jarayonini samaraliroq qiladi, balki nazorat, marketing va logistika tizimini ham avtomatlashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi. Shu orqali ishlab chiqarish jarayoni integratsiyalangan, tezkor va aniq ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishga yo'naltirilgan tizimga aylanadi.

Amaliyotda ham, raqamli iqtisodiyotning o'sishi nafaqat rivojlangan mamlakatlar, balki butun dunyo bo'ylab iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim rol o'ynamoqda. Yiliga o'rtacha 20 foizga o'sishi raqamli xizmatlar va texnologiyalarning qanchalik tez rivojlanayotganini ko'rsatadi. Rivojlangan mamlakatlar, xususan, AQSh, raqamli xizmatlar eksportidan katta foyda ko'rmoqda: 400 milliard dollardan ortiq eksport va iqtisodiyotga 5 foizdan ziyod ulush kiritish orqali AQSh raqamlashtirish sohasida yetakchi o'rinlarda turadi.

Bundan tashqari, 2025-yilgacha raqamli iqtisodiyot orqali yana 20 trillion dollarlik daromad olish prognoz qilinmoqda. Bu o'sish yangi texnologiyalarni tatbiq qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, raqamli xizmatlar va mahsulotlarni kengroq miqyosda joriy etish orqali amalga oshiriladi. Shu tariqa, raqamli iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki jamiyatning barcha sohalarini raqamlashtirish va modernizatsiyalashga yordam beradi.

Mamlakatimiz sanoat tarmog'i va boshqa sohalarni rivojlanishini ta'minlashda ham ishlab chiqarishni raqamlashtirish ta'siri oxirgi yillarda bir muncha ortgan. Andijon viloyati sanoat tarmog'i va uning tarkibidagi sanoat korxonalari faoliyatid ham oxirgi yillarda raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida bir qator natijalarga erishilgan. Xususan, Shaxrixon tumanida joylashgan «Saxovat Teks» MCHJning iqtisodiy natijalari ham bir muncha yaxshilangan (2-rasm).



**2-rasm. «Saxovat Teks» MCHJning iqtisodiy ko'rsatkichlari o'zgarishi.**

Yuqoridagi ma'lumotlar «Saxovat Teks» MCHJning iqtisodiy faoliyati natijalariga raqamli texnologiyalarni ta'siri yuqoriyin ko'rsatmoqda. Korxonada 2020-yildan 2023-yilgacha ishlab chiqarishni raqamlashtirishga sarflangan kapitalning o'sish sur'ati 6,8 foizdan 38,6 foizga ortgan bo'lib, bunga mos ravishda mahsulot xajmining o'sish sur'ati 2023-yili 16,



4 foizni tashkil etgan, natijada korxonaning umumiy rentabellik darajasi 2023-yili 4,9 foizga ortgan.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar sanoat korxonalar faoliyatiga ta'siri yuqori bo'lib, sanoat korxonalarini rivojlantirishda ishchi joylarni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini robotlashtirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bunda korxonalarining iqtisodiy faoliyatiga oid ma'lumotlarni raqamli formatga o'tkazish, raqamli formatda faoliyat yurituvchi texnologiyalar joriy qilish, raqamli platformalar shakllantirish, raqamlashtirishda tashkiliy hamda iqtisodiy jarayonlarga alohida ahamiyat qaratish zarur. Mahsulot sotish va xizmat ko'rsatishni raqamlashtirilishda onlayn savdo platformalarini joriy etish, mijozlar va tashqi hamkorlar bilan jarayonlarni raqamlashtirish asosiy omil sanaladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» PF-60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentini 2020-yil 5 mayda «Raqamli O'zbekiston-2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» [PF-6079](#)-sonli Farmoni
3. United Nations Sonferense on Trade and Development – UN Conference on Trade and Development 2023 y.
4. <https://www.bea.gov/sites/default/files/papers/defining-and-measuring-the-digital-economy> 2023 y.
5. V.G.Kim. «Innovatsion texnologiyalar asosida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish» mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent – 2019-y. 11-13 bet.
6. A.G.Allayeva. «Yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalarini faoliyatini samarali rivojlantirish» mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent – 2018-y. 7-11 bet
7. G.L.Sadovskiy «Analiz sovremennyykh tendensiy sifrovoy transformatsii promyshlennosti». // Molodoy uchenyy. -2017 g. -№ 14 (148). St. 427-430.
8. L.S.Blyaxman Politiko-ekonomicheskaya sushnost novoy industrializatsii//Novaya industrializatsiya Rossii: teoreticheskie i upravlencheskie aspekty. – SPb.: Rost, 2014 g.st 9
9. I.A.Gunina, Yu.P.Lyutova. Otsenka effektivnosti ispolzovaniya osnovnogo kapitala promyshlennogo predpriyatiya. Jurnal. «Ekonominfo». 2020 g. T.17. № 1 st 22-26
10. R.J.Kurbanova «Servis korxonalarini modernizatsiyalash va ularda xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish (Samarqand viloyati umumiy ovqatlanish korxonalarini misolida)» mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.Samarqand – 2019-y. 16-bet.
11. G.L.Sadovskiy «Analiz sovremennyykh tendentsiy tsifrovoy transformatsii promyshlennosti». // Molodoy uchenyy. -2017 g. -№ 14 (148). St. 427-430.
12. Marifovich, M. M. (2023). The effect of product diversification on the economic efficiency of industrial enterprises. *Deutsche Internationale Zeitschrift für Zeitgenössische Wissenschaft*, (68).
13. Muxtarov, M. (2023). Mahsulotlarni diversifikatsiyalash asosida to'qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 24(5), 274-278.
14. Marifovich, M. M. (2022). Means to increase efficiency in industrial production. *Confrencea*, 6(6), 104-107.